Andijon viloyatida turizm sohasi

Mamlakatimiz har bir hududi nafaqat tabiiy iqlimi, balki boy tarixiy merosi, o'ziga xos udumlari, turmush tarzi, hatto turfa an'analari bilan bir-birini aslo takrorlamaydi. Shu bois ham bu yurtni ko'rmoq, uning havosidan nafas olmoq istagida dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyurayotgan sayyohlar soni yil sayin ko'paymoqda. Xususan, turizm sohasidagi yuksak salohiyat, zamonaviy infratuzilmaga ega Andijon viloyatidan mahalliy va xorijiy mehmonlarning qadami uzilmaydi.

Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan mazkur viloyat tarkibida 14 tuman va 11 shahar bo'lib, umumiy maydoni 4,2 ming km. kvadratdan iborat. Havosi mo'tadil. Yozda issiq, qishda sovuq. Ayni shu jihat yil davomida sayyohlik xizmatlarini taklif etish, sohaning yangi-yangi yo'nalishlarini o'zlashtirish imkonini beradi.

Andijon viloyatida turizm sohasi

Hududda 370 dan ziyod madaniy meros ob’ektlari mavjud. Ularning har biri bamisoli o’tmishning o’qilmagan sahifasi. “Jom’e” va “Ahmadbek hoji mehmonxonasi” majmualari, “Qutayiba ibn Muslim”, “Shirmonbuloq”, “Imom ota” ziyoratgohlari Andijon tarixidan so’zlovchi maskanlar sifatida ko’pchilikning e’tiborini tortayotgan bo’lsa, “Mingtepa” yodgorligi, “Xontoq” va “Fozilmon ota” dam olish maskanlari don-i dunyoga ketgan. Bu erga hatto Fransiya, Yaponiya, Xitoy kabi ko’plab xorijiy davlatlardan mutaxassislar tashrif buyurib, izlanishlar olib borishmoqda.

Andijon viloyatida turizm sohasi

Andijon viloyatida 2018-yilda safar marsadlari bo`yicha mehmonxona va shunga o`hshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi.



Andijon viloyatida 2018-yil davomida 23ta mehmonxona va shunga o`hshash joylashtirish vositalari faoliyat olib borgan. Ularda jami 573 ta nomer (xona) lar mavjud bo`lib, 1035 ta joylarga yil davomida jami 57297 nafar turistlarga xizmat ko`rsatilgan. Jami xizmat ko`rsatilgan turistlardan 6757 nafar (11.8%)i MDX mamlakatlari fuqarolari, 3919 nafar (6.8 %)i uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari va 46621 nafar (81.4%)i O`zbekiston fuqarolarini tashkil qiladi.

Andijon viloyatida turizm sohasi

	Jami:	ta`til uchun	do`stlar va qarindoshlardan habar olish	ta`lim uchun	davolanish uchun	ziyorat qilish uchun	do`konlarga tashrif	tranzit	boshqa shaxsiy maqsadlar
Andijon viloyatida	57297	1641	3926	526	887	572	379	189	14051
shu jumladan shaharlarda:									
Andijon	56149	1592	3883	509	874	539	379	189	13678
Xonobod									
tumanlarda :									
Oltinko`l									
Andijon	1148	49	43	17	13	33			373

Andijon viloyatida turizm sohasi

2018 yilda Andijon viloyati bo`yicha sotilgan sayyohlik yo`llanmalari



Andijon viloyatida turizm sohasi

2018 yilda Andijon viloyati bo`yicha sotilgan sayyohlik yo`llanmalari dan tushgan mablag`larining miqdori



Viloyatda yildavomida sotilgan sayyohlik yo`llanmalaridan jami bo`lib 1066.0 mln so`m qiymatda tushum qilingan . Ularning 1016.0 mln so`m miqdori esa kichik korxona va mikrofirmalar hisobidan.